



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 4-SON



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Olimova Sevara

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONIDAGI AN‘ANAVIY JAMIYAT MAROSIMLARINING TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLILI6-10

Yuldasheva Shahlo

XVI – XIX ASRLAR XIVA XONLIGI ETNO- SIYOSIY TARIXI MUOMMOLARI (ETNOLOGIK TADQIQOTLAR ASOSIDA) 11-15

Abdullayeva Shoxnoza

“XORAZM MUSIQIY TARIXCHASI” ASARI – MARKAZIY OSIYO MUSIQIY SAN‘ATINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 16-22

Djabbarova Sevara

XORAZMDA ZIYORATGOH MADANIYATI: ISLOMIY VA MAHALLIY UNSURLAR UYG‘UNLIGI 23-26

Jumabekova Zarafshan

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA QAL‘AJIQ QAL‘A YODGORLIGINI QAYTA TIKLASH VA REKONSTRUKSIYA QILISH 27-31

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL 32-41

YURIDIK FANLAR

Zokirov Shoxruxbek

QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING SHAKLLARI VA ULARNING NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR SIFATIGA TA‘SIRI 42-48

FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES

Article / Original Paper

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL

Isanova Feruza Tulqinovna

Toshkent davlat agrar universiteti, o'qituvchi

O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: isanovaferuza2909@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq sohasiga oid leksik birliklarning morfologik tuzilishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida xalqaro huquq terminlarining sodda, yasama va qo'shma shakllari o'rganilib, ularning affiksatsiya, derivatsiya hamda kompozitsiya orqali hosil bo'lish xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida xalqaro huquq terminlarining shakllanishida prefiks va suffikslarning o'rnini tahlil qilinib, ikki til o'rtasidagi morfologik o'xshashlik va farqli jihatlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminologiyasini tizimlashtirish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish hamda lingvistik tadqiqotlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, terminologiya, leksik birlik, morfologik tuzilish, affiksatsiya, derivatsiya, kompozitsiya, prefiks, suffiks, qiyosiy tahlil.

MORPHOLOGICAL STRUCTURE OF LEXICAL UNITS RELATING TO INTERNATIONAL LAW IN UZBEKISTAN AND ENGLISH: A COMPARATIVE ANALYSIS

Isanova Feruza Tulqinovna

Tashkent State Agrarian University, teacher

Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. This article presents a comparative analysis of the morphological structure of lexical units related to international law in Uzbek and English languages. The study examines simple, derived, and compound legal terms and analyzes their formation through affixation, derivation, and composition processes. Particular attention is given to the role of prefixes and suffixes in the formation of international legal terminology. The similarities and differences in morphological patterns between Uzbek and English legal terms are identified and systematized. The results of the research contribute to improving translation practices, standardizing legal terminology, and enhancing linguistic research in the field of international legal discourse.

Keywords: international law, terminology, lexical units, morphological structure, affixation, derivation, composition, prefix, suffix, comparative analysis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i4v2y2026/n06>

KIRISH.

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari natijasida davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar sezilarli darajada kengaymoqda. Ushbu jarayonlarda xalqaro huquqning roli tobora ortib bormoqda. Xalqaro huquq normalarining to'g'ri talqin qilinishi va qo'llanilishi esa,

avvalo, ushbu sohada qo'llaniladigan terminlarning aniq va to'g'ri tushunilishiga bog'liqdir. Shu sababli xalqaro huquq terminologiyasining lingvistik jihatdan o'rganilishi dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslik fanida leksik birliklarning morfologik tuzilishini o'rganish til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Morfologik tahlil yordamida terminlarning tarkibiy tuzilishi, ularning hosil bo'lish usullari hamda strukturaviy xususiyatlari aniqlanadi. Xalqaro huquq terminlari ko'pincha murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular affiksatsiya, kompozitsiya va derivatsiya jarayonlari orqali hosil bo'ladi.

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning morfologik tizimlari ham sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tili analitik tillar guruhiga kiradi va unda prefiksatsiya hamda suffiksatsiya keng qo'llaniladi. O'zbek tili esa agglutinatив tillar guruhiga mansub bo'lib, unda suffiksatsiya jarayoni ustunlik qiladi. Shu sababli ushbu ikki til misolida xalqaro huquq terminlarining morfologik tuzilishini qiyosiy o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq terminlarining morfologik tuzilishini aniqlash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro huquq terminlarining morfologik tasnifini ishlab chiqish;
- ingliz tilidagi xalqaro huquq terminlarining morfologik modellari va tuzilishini o'rganish;
- o'zbek tilidagi xalqaro huquq terminlarining morfologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- ikki til terminlarining strukturaviy o'xshashlik va farqlarini aniqlash.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq terminlarining morfologik tuzilishi tizimli ravishda qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning strukturaviy modellari aniqlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa xalqaro huquq terminlarini tarjima qilish, lug'atlar yaratish hamda ilmiy matnlarni to'g'ri shakllantirish jarayonlarida ushbu natijalardan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Albatta, ingliz tilida xalqaro-huquq sohasiga oid terminologik tizim haqida gap borar ekan, bu terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari borligini ta'kidlash o'rinlidir. Barcha terminlarda bo'lgani kabi, halqaro huquqda xam "ideal termin" talablariga to'lik javob bermaydigan terminlar mavjud. Xalqaro huquq terminlari va termin birikmalari majoziy, xissiy, ekspressiv rangga egadir. Xalqaro huquq terminologiyasi huquq va Xalqaro munosabatlar terminologiyasida o'ziga xos semantik ahamiyatga ega. Foydalanilganda bu terminologiya huquqning xar bir quyi tizimiga kirib boradi va terminologik tizim rivojlanish dinamikasini aks ettiradi [4, 46-b].

TADQIQOT METODLARI.

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq sohasiga oid leksik birliklarning morfologik tuzilishini qiyosiy o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida zamonaviy lingvistik yondashuvlarga asoslangan ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi xalqaro huquq terminlarining tuzilishini aniqlash, ularning hosil bo'lish usullarini tahlil qilish hamda ikki til o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning obyektini o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan xalqaro huquq terminlari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa mazkur terminlarning morfologik tuzilishi, ya'ni ularning o'zak va qo'shimchalardan tashkil topgan strukturaviy xususiyatlari hisoblanadi. O'zbek tilidagi xalqaro huquqdagi leksik birliklarning funksional xususiyatlarini o'rganish huquqshunoslar, tarjimonlar va bo'lajak yurist kadrlar uchun amaliy ahamiyatga ega [6,152-b].

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro huquq sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, terminologik lug'atlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro huquq bo'yicha o'quv qo'llanmalardan foydalanildi. Terminlar tanlash jarayonida ularning keng qo'llanilishi, ilmiy ahamiyati hamda xalqaro huquq sohasida faol qo'llanilishi mezon sifatida olindi. Tadqiqot uchun jami 150 dan ortiq xalqaro huquq terminlari tanlab olinib, ularning morfologik tuzilishi tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Morfologik tahlil metodi.

Mazkur metod yordamida xalqaro huquq terminlarining ichki tuzilishi o'rganildi. Terminlarning tarkibiy qismlari aniqlanib, ularning o'zak va qo'shimchalardan tashkil topganligi tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning sodda, yasama va qo'shma shakllari aniqlanib, ularning hosil bo'lish usullari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil metodi.

Qiyosiy tahlil metodi ikki til o'rtasidagi morfologik o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro huquq terminlarining strukturaviy modellari o'zaro solishtirildi hamda ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Strukturaviy tahlil metodi.

Strukturaviy tahlil metodi terminlarning ichki tuzilishini tizimli ravishda o'rganishga xizmat qildi. Ushbu metod yordamida terminlarning tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlanib, morfologik modellar ishlab chiqildi.

Tasniflash metodi.

Mazkur metod yordamida xalqaro huquq terminlari morfologik jihatdan tasniflandi. Terminlar sodda, yasama va qo'shma shakllarga ajratilib, har bir guruh alohida o'rganildi.

Statistik tahlil metodi.

Terminlarning qo'llanish chastotasi va morfologik shakllari statistik jihatdan tahlil qilindi. Bu metod yordamida terminlarning qaysi turdagi morfologik shakllari ko'proq uchrashi aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash hamda olingan natijalarning ishonchliligini oshirish imkonini berdi.

NATIJALAR.

Xalqaro huquq terminlarining morfologik tasnifi

Xalqaro huquq sohasiga oid terminlar lingvistik jihatdan murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu terminlarning morfologik tuzilishini o'rganish ularning shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq terminlari morfologik jihatdan tahlil qilinib, ularning asosiy strukturaviy turlari aniqlashtirildi.

O'rganilgan materiallar asosida xalqaro huquq terminlari quyidagi morfologik turlarga ajratildi:

1. Sodda terminlar
2. Yasama terminlar
3. Qo'shma terminlar

Mazkur tasnif terminlarning ichki tuzilishi hamda hosil bo'lish usullariga asoslanadi.

Sodda terminlar (Simple Terms)

Sodda terminlar birgina o'zakdan tashkil topgan bo'lib, ular tarkibida qo'shimcha yoki qo'shma elementlar mavjud bo'lmaydi. Bunday terminlar xalqaro huquq terminologiyasining asosiy qatlamini tashkil etadi va ko'pincha boshqa murakkab terminlarni hosil qilish uchun asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi sodda xalqaro huquq terminlariga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

- | | |
|----------|---------|
| • law | • claim |
| • court | • right |
| • treaty | • duty |
| • state | • peace |
| • judge | • war |

Mazkur terminlar sodda tuzilishga ega bo'lib, ular boshqa terminlarni hosil qilishda asos sifatida xizmat qiladi. Masalan, "law" so'zi asosida "lawful", "lawless", "legislation" kabi murakkab terminlar hosil qilinadi.

O'zbek tilidagi sodda xalqaro huquq terminlariga esa quyidagilar kiradi:

- | | |
|------------|--------------|
| • huquq | • qaror |
| • sud | • majburiyat |
| • davlat | • da'vo |
| • tinchlik | • bitim |
| • urush | • nizom |

Mazkur terminlar ham sodda tuzilishga ega bo'lib, ular qo'shimchalar yordamida yangi terminlarni hosil qilish imkoniyatiga ega. Masalan, "huquq" so'zidan "huquqiy", "huquqshunos", "huquqbuzarlik" kabi yangi terminlar hosil bo'ladi.

Sodda terminlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular boshqa murakkab terminlarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli sodda terminlar terminologik tizimning yadrosini tashkil etadi.

Yasama terminlar (Derived Terms)

Yasama terminlar affiksatsiya jarayoni orqali hosil bo'ladi. Affiksatsiya terminlarning o'zaklariga prefiks yoki suffiks qo'shish orqali yangi ma'no hosil qilish jarayonidir. Ingliz tilida prefiks va suffikslar faol qo'llanilsa, o'zbek tilida asosan suffiksatsiya ustunlik qiladi.

Ingliz tilidagi yasama terminlar

Ingliz tilida xalqaro huquq terminlarining hosil bo'lishida quyidagi suffikslar keng qo'llaniladi:

- -tion
- -ment
- -ity
- -al
- -er

Quyidagi misollar orqali ingliz tilidagi yasama terminlarning tuzilishini ko'rib chiqish mumkin:

Termin	Morfologik tuzilish	Ma'nosi
legislation	legislate + tion	qonunchilik
agreement	agree + ment	kelishuv
legality	legal + ity	qonuniylik
judicial	judge + al	sudga oid
arbitration	arbitrate + tion	arbitraj

Mazkur misollar ingliz tilida suffiksalar orqali terminlar hosil qilish jarayoni keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Prefiksalar ham ingliz tilida muhim rol o'ynaydi. Masalan:

- inter- (international)
- sub- (subcommittee)
- anti- (anti-corruption)
- non- (non-compliance)

Quyidagi misollar prefiksatsiya orqali hosil bo'lgan terminlarni ko'rsatadi:

- international law
- non-compliance
- subcommittee
- anti-terrorism

O'zbek tilidagi yasama terminlar

O'zbek tilida xalqaro huquq terminlari asosan suffiksalar yordamida hosil qilinadi. Bu jarayon agglutinativ til xususiyatiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Quyidagi suffiksalar eng ko'p qo'llaniladi:

- -iy
- -lik
- -chi
- -dor
- -shunos

Quyidagi misollar o'zbek tilidagi yasama terminlarning tuzilishini ko'rsatadi:

Termin	Morfologik tuzilish	Ma'nosi
huquqiy	huquq + iy	huquqqa oid
qonuniylik	qonun + iy + lik	qonuniylik
davlatlilik	davlat + li + lik	davlatga oidlik
huquqshunos	huquq + shunos	huquq mutaxassisi
majburiy	majbur + iy	majburiy

Mazkur misollar o'zbek tilida suffiksatsiya jarayoni asosiy morfologik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Qo'shma terminlar (Compound Terms)

Qo'shma terminlar ikki yoki undan ortiq o'zaklarning birikishi orqali hosil bo'ladi. Xalqaro huquq terminologiyasida qo'shma terminlar keng tarqalgan bo'lib, ular murakkab tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi qo'shma terminlar

Quyidagi misollar ingliz tilidagi qo'shma terminlarni ifodalaydi:

- international law
- human rights
- peace treaty
- legal system
- international agreement
- diplomatic immunity
- criminal liability

Mazkur terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan bo'lib, murakkab tushunchalarni ifodalashda qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi qo'shma terminlar

O'zbek tilida ham qo'shma terminlar keng qo'llaniladi. Quyidagi misollar bunga dalil bo'la oladi:

- xalqaro huquq
- inson huquqlari
- tinchlik shartnomasi
- xalqaro tashkilot
- davlat chegarasi
- huquq tizimi
- sud organlari

Mazkur terminlar bir nechta so'zlardan tashkil topgan bo'lib, ular xalqaro huquq sohasidagi murakkab tushunchalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro huquq terminlarining morfologik modellari va qiyosiy tahlili

Xalqaro huquq terminlarining morfologik tuzilishini chuqur o'rganish ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan xalqaro huquq terminlarining morfologik modellari aniqlanib, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Morfologik modellar terminlarning tuzilishida qo'llaniladigan asosiy strukturaviy elementlarni ifodalaydi. Ushbu modellar terminlarning qanday shakllanishini hamda ularning morfologik tarkibini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida jami 150 dan ortiq termin o'rganilib, ularning asosiy qismi yasama va qo'shma terminlar ekanligi aniqlandi. Sodda terminlar esa terminologik tizimning asosiy yadrosini tashkil etishi kuzatildi.

Ingliz tilidagi morfologik modellar

Ingliz tilida xalqaro huquq terminlari asosan quyidagi morfologik modellar asosida hosil bo'lishi aniqlangan:

1-model: O'zak + suffiks

Bu model ingliz tilida eng keng tarqalgan morfologik model hisoblanadi.

Misollar:

Termin	Tuzilishi	Tarjima
legislation	legislate + tion	qonunchilik
arbitration	arbitrate + tion	arbitraj
agreement	agree + ment	kelishuv
liability	liable + ity	javobgarlik
legality	legal + ity	qonuniylik

Mazkur model xalqaro huquq terminlarining shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

2-model: Prefiks + o'zak

Bu model ingliz tilida keng qo'llaniladi.

Misollar:

Termin	Tuzilishi	Tarjima
international	inter + national	xalqaro
non-compliance	non + compliance	rioya qilmaslik
subcommittee	sub + committee	kichik qo'mita
anti-terrorism	anti + terrorism	terrorizmga qarshi

Mazkur model orqali terminlarning ma'nosiga yangi semantik rang beriladi.

3-model: Qo'shma terminlar (o'zak + o'zak)

Misollar:

Termin	Tuzilishi	Tarjima
human rights	human + rights	inson huquqlari
peace treaty	peace + treaty	tinchlik shartnomasi
legal system	legal + system	huquq tizimi
state responsibility	state + responsibility	davlat javobgarligi

Mazkur model xalqaro huquq terminologiyasida juda keng qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi morfologik modellar

O'zbek tilida xalqaro huquq terminlarining shakllanishida quyidagi modellar ustunlik qiladi.

1-model: O'zak + suffiks

Bu model o'zbek tilida eng faol model hisoblanadi.

Misollar:

Termin	Tuzilishi	Ma'nosi
huquqiy	huquq + iy	huquqqa oid
qonuniylik	qonun + iy + lik	qonuniylik
majburiy	majbur + iy	majburiy
davlatlilik	davlat + li + lik	davlatga oidlik
huquqshunos	huquq + shunos	huquq mutaxassisi

Mazkur model o'zbek tilining agglutinativ xususiyatiga mos keladi.

2-model: Qo'shma terminlar (so'z + so'z)

Misollar:

Termin	Tuzilishi	Ma'nosi
xalqaro huquq	xalqaro + huquq	international law
inson huquqlari	inson + huquqlari	human rights
davlat chegarasi	davlat + chegarasi	state border
xalqaro tashkilot	xalqaro + tashkilot	international organization

Mazkur model murakkab tushunchalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Qiyosiy tahlil jadvali

Quyidagi jadval ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarning morfologik tuzilishini qiyosiy ravishda ko'rsatadi.

Ingliz tili	O'zbek tili	Morfologik turi
treaty	shartnoma	sodda
legislation	qonunchilik	yasama
arbitration	arbitraj	yasama
human rights	inson huquqlari	qo'shma
peace treaty	tinchlik shartnomasi	qo'shma
international law	xalqaro huquq	qo'shma
liability	javobgarlik	yasama
immunity	immunitet	sodda
ratification	ratifikatsiya	yasama
jurisdiction	yurisdiksiya	yasama

Mazkur jadval terminlarning strukturaviy jihatdan o'xshashligini ko'rsatadi.

Morfologik o'xshashliklar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro huquq terminlari o'rtasida quyidagi o'xshashliklar aniqlangan:

- har ikkala tilda ham affiksatsiya muhim rol o'ynaydi;
- qo'shma terminlar keng qo'llaniladi;
- xalqaro terminlarning katta qismi lotin va yunon tillaridan kirib kelgan;
- murakkab terminlar asosan bir nechta elementlardan tashkil topadi.

Mazkur o'xshashliklar xalqaro huquq terminologiyasining universalligini ko'rsatadi.

Morfologik farqlar

Ikki til o'rtasida quyidagi asosiy farqlar aniqlangan:

- ingliz tilida prefiksatsiya faol qo'llaniladi;
- o'zbek tilida asosan suffiksatsiya ustunlik qiladi;
- ingliz tilida qisqa shaklli terminlar ko'p uchraydi;
- o'zbek tilida terminlar ko'pincha ko'p bo'g'inli shaklda ifodalanadi.

Mazkur farqlar har ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi.

MUHOKAMA.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq terminlarining morfologik tuzilishi o'rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar terminologiya va qiyosiy tilshunoslik sohasida ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang ekanligi kuzatildi.

Xususan, ingliz tilidagi xalqaro huquq terminlarining shakllanishida suffiksatsiya va prefiksatsiya jarayonlarining faol qo'llanilishi ilgari tilshunoslar tomonidan ham qayd etilgan. Ingliz tilining analitik xususiyati yangi terminlarni hosil qilishda prefikslar va suffikslarning muhim rol o'ynashiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida "-tion", "-ment", "-ity" kabi suffikslar xalqaro huquq terminlarining shakllanishida eng ko'p qo'llaniladigan morfologik vositalar hisoblanadi.

O'zbek tilidagi terminlarning shakllanishi esa agglutinatив tizimga asoslangan bo'lib, unda suffiksatsiya jarayoni ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida "-iy", "-lik", "-chi", "-

shunos" kabi qo'shimchalarning faol qo'llanilishini ko'rsatdi. Bu holat o'zbek tilining tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi. O'zbek tilida prefikslarning deyarli qo'llanilmasligi ham ushbu tilning morfologik tuzilishiga xos xususiyatlardan biridir.

Tadqiqot davomida qo'shma terminlarning har ikkala tilda ham keng qo'llanilishi aniqlangan. Xususan, xalqaro huquq sohasida murakkab tushunchalarni ifodalash uchun qo'shma terminlardan foydalanish samarali vosita hisoblanadi. Ingliz tilida "human rights", "international law", "peace treaty" kabi qo'shma terminlar keng qo'llanilsa, o'zbek tilida "inson huquqlari", "xalqaro huquq", "tinchlik shartnomasi" kabi terminlar faol ishlatiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminologiyasining universalligini ham ko'rsatadi. Ko'plab terminlarning lotin va yunon tillaridan kirib kelganligi ularning morfologik tuzilishida o'xshashliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Masalan, "jurisdiction", "ratification", "legislation" kabi terminlar o'zbek tiliga ham moslashgan shaklda kirib kelgan bo'lib, ular xalqaro terminologik tizimning umumiylikni ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminlarini tarjima qilish jarayonida morfologik tahlil muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Terminlarning tuzilishini to'g'ri tushunish ularning aniq va to'g'ri tarjima qilinishini ta'minlaydi. Bu esa xalqaro huquq hujjatlarining mazmunini to'g'ri talqin qilish uchun zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida xalqaro huquq terminologiyasini standartlashtirish, terminologik lug'atlar yaratish hamda lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishda foydalanilishi mumkin.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq sohasiga oid leksik birliklarning morfologik tuzilishini qiyosiy o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot jarayonida xalqaro huquq terminlarining strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning asosiy morfologik modellari aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro huquq terminlari morfologik jihatdan sodda, yasama va qo'shma shakllarga ajratilishi mumkinligi aniqlandi. Sodda terminlar terminologik tizimning asosiy yadrosini tashkil etsa, yasama va qo'shma terminlar murakkab tushunchalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz tilida xalqaro huquq terminlarining shakllanishida prefiksatsiya va suffiksatsiya jarayonlari faol qo'llanilishi aniqlandi. O'zbek tilida esa suffiksatsiya asosiy morfologik vosita sifatida ustunlik qilishi kuzatildi. Qo'shma terminlarning har ikkala tilda ham keng qo'llanilishi murakkab huquqiy tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro huquq terminlarining o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Bu esa terminologik tizimni yanada chuqur o'rganish hamda tarjima jarayonlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminologiyasini standartlashtirish, ilmiy lug'atlar yaratish hamda lingvistik tadqiqotlar olib borishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Arnold I.V. The English Word. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1986.
2. Bauer L. English Word-Formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
3. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

4. Isanova, Feruza (2022) ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХАЛҚАРО ХУҚУҚ СОҲАСИГА ОИДТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6 (3). pp. 44-49. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/520>
5. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). – Moskva: Vysshaya Shkola, 1990.
6. Isanova, Feruza (2023) O‘ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3 (7). pp. 151-160. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/519>
7. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. – Moskva: Aspekt Press, 2000.
8. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquq bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2020.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
10. Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
11. Tursunov U., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1992.
12. Garner B.A. Black’s Law Dictionary. – St. Paul: West Publishing, 2009.
13. Isanova, Feruza (2025) INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (3). pp. 292-297. ISSN 2181-1342// <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/466>
14. Isanova, Feruza (2025) INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1s). pp. 173-180. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/373>
15. Isanova, F. (2026). THE FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF LAW IN ENGLISH. В ИЛМИЯРХИВ. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/26>
16. Isanova, F. (2026). THE HISTORICAL ORIGIN AND FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF INTERNATIONAL LAW IN THE UZBEK LANGUAGE. LigvoScience.Uz: Current Issues in Linguistics and Cultural Studies, 2(3), 13-18. <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N02>



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com